

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERAKTIV VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI**

***Imamova Gu'lxa'sem Turg'anbay kizi***

*Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida didaktik o'yinlarning o'rni va ahmiyati hamda ularning qo'llash va foydalanish o'quvchini ushbu metod orqali og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol metodlar, o'quv materiallari, pedagogik texnologiyalar, "Fikriy hujum" metodi, "6x6x6" metodi,

Interfaol metodlar deganda- ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi.

O'yin tashqi tomondan tashvishsiz va yengil ko'rindi. Aslida esa, u o'yinchidan maksimum energiya sarflashini, fikrlashni, o'zini tuta bilishni, mustaqil harakat qila olishni talab etadi. Ta'limning o'yinli shakllari bilim o'zlashtirilishini barcha darajalaridan foydalanishga imkon beradi, masalan, ijodiy- izlanish faoliyati. Ijodiy-izlanish faoliyati juda samarali hisoblanib, unda o'quvchi ta'lim olishning usullarini o'zlashtiradi. O'yin ko'pfunksionaldir. Biz o'yinlarning faqat didaktik, ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi funksiyalariga to'xtalib o'tamiz.

Didaktik o'yinlar – bu atamani bevosita o'yinlarga nisbatan ishlatish mumkin, chunki u maqsadli ravishda didaktikaning bo'limiga kiradi. Hozirgi vaqtda metodik adabiyotlarda yetarli miqdordagi, u yoki bu tasnifiy mezonlariga mos keladigan ta'limiy o'yinlarning tasnifiy va tizimlashtiruvchi ko'rinishlari mavjud. Masalan, ular quyidagilarga bog'liq bo'lishi mumkin:

-ta'limiy o'yinlarning maqsad va vazifalari;

- o‘tkazilish shakllari;
- tashkillashtirilish usullari;
- murakkablik darajasi;
- ishtirokchilar sonining tarkibi.

O‘tkazilish shakliga ko‘ra o‘yinlar quyidagilarga bo‘linadi: predmetli, harakatlanuvchan, syujetli yoki holatlari, rolli, musoboqa-o‘yin, intellektual o‘yinlar (rebuslar, krossvordlar, viktorinalar), o‘zaro ta’sir qiluvchi (kommunikativ, interfaol) o‘yinlar.

Tashkil qilinishiga ko‘ra o‘yinlar kompyuterli va kompyutersiz, yozma va og‘zaki, tayanchli va tayanchsiz, immitatsion-modellashtiriluvchi va kreativ hamda boshqalar. Barcha o‘quv o‘yinlari, amallarining bajarilishidagi murakkablik darajasiga qarab, oddiy (yakka) va murakkab (ko‘p) holatlilarga, o‘tkazilish vaqtiga qarab, ular davomli va davomli bo‘lmaganlarga bo‘linadi.

Ishtirokchilarning tarkibiy soniga qarab, o‘yinlar yakka tartibdagi, juftliklardagi, guruhlardagi, komandali va jamoalilarga bo‘linadi. Ma’lumki, qayd etilganlardan birinchisi, ya’ni yakka tartibdagi o‘yinlar o‘quvchilarga nisbatan yakka tartibdagi yondashuvni amalga oshirilishini va ta’lim oluvchini ma’lumot manbasi bilan “muloqotini” nomoyon etadi. Qolgan o‘yinlarda esa, sheriklarni bir-birlari bilan muloqot qilishi, masalan, xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida yakka tartibdagi kabi tabaqlashtirilgan yondashuvning amalga oshishi mumkin.

O‘quvchilar intellektni rivojlantiruvchi, bilish faolligini oshiruvchi bir necha o‘yinlar guruhi mavjud.

I guruh – predmetli o‘yinlar, o‘yinchoqlar va predmetlar bilan manipulyatsiya qilish sifatida. O‘yinchoqlar – predmetlar – orqali bolalar shakllarni, rangni, hajmni, materialni, hayvonot dunyosini, odamlar dunyosini va boshqalarni bilishadi, o‘rganishadi.

II guruh – ijodiy, syujetli-rolli o‘yinlar, ularda syujet – intellektual faoliyat shaklidir. “Baxtli tasodif”, “Zakovot” va boshqa shu kabi intellektual o‘yinlar.

Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘z o‘yinlari davomida, ularni real hayotda jalb qiladigan insonlarning sifatlariga ega bo‘lishga harakat qilishadi. Shu sababdan bolalarga qahramonlik, botirlik, ochiqko‘ngillilik bilan bog‘iq bo‘lgan rollar yoqadi.

O‘quvchilar haqiqiy hayotda bajara olmayotgan ishlarini ifodalashga harakat qilishib, o‘z-o‘zlarini rolli o‘yinlarda tasvirlay boshlashadi. Masalan, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchi o‘ziga yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchi rolini oladi. Bunday o‘yindagi ijobiy holat shundan iboratki, yaxshi o‘quvchi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan talablarni bola o‘z oldiga qo‘ya boshlaydi. Shunday qilib, rolli o‘yinni boshlang‘ich sinf o‘quvchisini o‘z-o‘zini tarbiyalovchi usuli sifatida qarashimiz mumkin.

III guruh o‘yinlari – bolalarni bilish faolligini rivojlantiruvchi vosita sifatida foydalilanadi – tayyor qoidalardan iborat o‘yinlar bo‘lib, ular odatda didaktik o‘yinlar deb ataladi.

Qoidaga ko‘ra, ular o‘quvchidan jumboqni yechishni, topishmoqni topishni, eng asosiysi – predmetni bilishni talab qiladi. Didaktik o‘yin qanchalik mahoratlari tuzilgan bo‘lsa, didaktik maqsad shunchalik mohirona yashiringan bo‘ladi. O‘yinda joylashtirilgan bilimlarni o‘quvchi o‘zi bilmagan holda, beixtiyoriy ravishda, o‘ynab turib o‘zlashtiradi.

IV guruh o‘yinlari – quruvchilikka, mehnat qilishga, texnikaga, konstruktorlikka doir o‘yinlar. Bu o‘yinlar kattalarning kasbiy faoliyatini aks ettiradi. Mazkur o‘yinlarda o‘quvchilar yaratuvchanlik jarayonini o‘zlashtirishadi, ular o‘z ishlarini rejorashtirishga, kerakli materiallarni tanlashga, o‘zini va boshqalar faoliyati natijalarini tanqidiy baholashga, ijodiy masalalarni yechishga o‘rganadilar. Mehnatdagi faollik bilishga bo‘lgan faollikni oshiradi.

V guruh o‘yinlari, intellektual o‘yinlar bo‘lib – ruhiy doiraga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘yin-mashqlar, o‘yin-treninglardir. Bu o‘yinlar musoboqalarga asoslangan bo‘lib, taqqoslash yo‘li orqali o‘ynayotgan o‘quvchilarga ularni tayyorgarligi darajasini, mukammalikka erishish yo‘llarini ko‘rsatadi, ya’ni bilishga bo‘lgan faolliklarini oshiradi.

Bolaning organizmi o‘suvchan bo‘lganligi sababli u har doim harakatni talab qiladi. Bolalar rohatlanib to‘p o‘ynashadi, chopishadi, sakrashadi. Turli harakatlar modda almashinuviga, qon aylanishiga va nafas olinishini yaxshilanishiga yordam beradi. Harakatlantiruvchi o‘yinlar shaxsiy sifatlarni shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi: ularda iroda, fikrlash, jasurlik rivojlanadi. Jamoaviy sport o‘yinlari va musoboqalar jamoada harakatlanish ko‘nikmasini, o‘rtog‘ini qo‘llab- quvvatlanishni, sinf va məktəb sha’ni uchun kurashishni rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o‘qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi

o‘qituvchi matematika o‘qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya’ni boshlang’ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallagan bo‘lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

«Metodika» grekcha so‘z bo‘lib, «metod» degani yo‘l demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimsiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog‘i bo‘lib, jamiyat tomonidan qo‘yilgan o‘qitish maqsadlariga muvofiq matematika qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tadqiq qiladi. Quyida matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko‘rib chiqamiz.

### **“Fikriy hujum” metodi.**

Mazkur metod o‘quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

### **“6x6x6” metodi.**

“6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bumetod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgachi o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakilbo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Amaliyotda o‘qituvchilar ko‘pincha biror topshifiqning usullarini biri boshqalaridan soddarоq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san’atkorona tuzilgan bo‘lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g‘oyalalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas. Shunday qilib, didaktik materiallarni o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini nazorat

qilish usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, rnazkur o‘qituvchi uchun eng yaxshi usul bo‘lishi mumkin. Shu sababli, didaktik materiallar o‘qituvchini o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umum metodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bikbayeva N.U va boshqalar ”Boshlang’ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi ”- Toshkent.: O‘qituvchi, 2014.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
3. Tolipov O‘.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2006.
4. Мамбетова, Г. Ж. (2016). Семантика некоторых гидронимических индикаторов в каракалпакском языке. International scientific journal, 65.
5. Kenbayeva, A. Z., Sh, P. A., & Zh, M. G. (2022). THE STUDY OF PLACE NAMES IN THE KARAKALPAK HEROIC EPOS “YER ZIYUAR”. Keruen, 75(2), 72-81.
6. Jubatkhanovna, S. S., & Jaksimuratovna, M. G. (2021). Types of structure of phraseologies in the work of T. Kaipbergenov “The secret known only to you”. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(14), 4486-4490.
7. Saodat, S. (2023). Study of Somatic Phraseological Units in Karakalpak Language.
8. Jubatkhanova, S. S. (2023). RELATIONSHIP OF LANGUAGE AND CULTURE IN LINGUOCULTUROLOGY. Miasto Przyszłości, 35, 238-243.
9. Jubatkhanovna, S. S., & Jaksimuratovna, M. G. (2021). Types of structure of phraseologies in the work of T. Kaipbergenov “The secret known only to you”. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(14), 4486-4490.
10. Shinnazarova, S. J., & Mambetova, G. J. (2020). PARONIMIA IN THE KARAKALPAK LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (3), 67-70.